



JURNALISTIKA SOHASIGA ILK QADAM NIMADAN BOSHLANADI?

O'zbekiston jurnakistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Teleradio jurnalistikasi yo'nalishi 2-kurs talabasi

Jamolova Jasmina

Annotatsiya: *Har bitta soha o'z atamalariga ega. Bu atamalar yillar o'tgan sari ommalashib bormoqda. Bugun bitta mamlakatda yangi so'z paydo bo'ldimi, boshqa mamlakatlarga ham yetib borishi tabiiy hodisa. Bu jarayonning ommalashishiga atama paydo bo'lgan ma'lum sohaning vazifalari kengayishi, jamiyatdagi ahamiyatining ortib borishi sabab bo'ladi. Bugungi kunda jurnalistika sohasi ham jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biridir.*

Kalit so'zlar: *Televide niye, jurnalistika, kommunikatsiya, radio, reklama, imidj, korrespondensiya, obyektivlik, gazeta, publisistika, maqola, taqriz.*

Nima deb o'ylaysiz, insoniyat taraqqiyoti tarixida jurnalistika degan tushuncha qachondan paydo bo'lgan? Har holda antik davr va o'rta asrlarda emas, deb javob berishingiz tabiiy. Ammo bu fikrlaringiz ham nisbiy. Chunki biror-bir axborotni uni kutayotgan iste'molchiga har qanday usul bilan yetkazishning o'zi jurnalistika unsurlarini tashkil etadi.

Faqat u boshqacha nomlangan bo'lishi mumkin. Ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi qabilalarning bir-birini xavf-xatardan himoya qilish uchun ovoz, xattiharakatlar orqali xabar berishi yo bo'lmasa uni madaniyroq ko'rinishi "jarchi"lik taomillarida ham qandaydir ma'noda jurnalistik elementlar mavjud. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda jurnalistika qadim an'analarga, qadriyatlarga ega xalqimizga ham xos sohadir. Lekin bizga fan uning madaniylashgan ko'rinishini tarix sifatida o'rgatadi. Ma'lumotlarga qaraganda, Qadimgi Rimda dolzarb masalalar



yuzasidan o‘z shaxsiy fikrini oshkora bildirish an’anasi mavjud bo‘lgan. Bu faqatgina notiq hamda riktorlargagina xos bo‘lgan. Maxsus notiqlar jamoatchilik oldida nutq so‘zlash o‘z siyosiy faoliyatini ommaga yetkazish vazifasi turardi. Vaqt o‘tishi bilan notiqlik san’ati ko‘p mamlakat va xalqlar madaniyatining bir qismiga aylandi. O‘rta asrlarda omma oldida nutq so‘zlash, turli din targ‘ibotchilari va din rahbarlari o‘z notiqliklaridan foydalanib, insonlar ongiga ta’sir qilish keng tus ola boshlagan.

Jamiyat taraqqiyoti, fan va texnika sohalarining rivojlanishi jurnalistika hamda ilk davriy nashrlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Tarixdan bizga ma’lumki, bog‘lam-bog‘lam qog‘oz o‘ramlariga yozilgan cherkov nomalari ilk hujjatli manbalar hisoblanadi. Yozuv uchun qulay bo‘lgan qog‘ozning paydo bo‘lishi ham jurnalistikating rivoji uchun asosiy turkilardan biri bo‘lgan. Ayniqsa, Logann Gutenberg (Germaniya, 15 asr) tomonidan ixtiro qilingan bosma harflarning majmui – alohida-alohida terilgan harflarning qolipidan istalgan matnni yozish imkoniyatini yaratdi. Bu esa muhim axborotlar tirajining kengayishiga va o‘z-o‘zidan oddiy o‘quvchilar auditoriyasining paydo bo‘lishiga olib kelgan. Soha tarixi haqidagi manbalarda aytishicha, jamoatchilikning jurnalistika va davriy nashrlarga bo‘lgan ehtiyoji 17-18 asrlarda kuchaya boshlagan va amalda matbuot bir necha turga bo‘lingan – hozirjavob gazetalar, jurnallar, vaqtiga-vaqtiga bilan chop etiladigan taqvimlar, byulletenlar va ma’lumotnomalar.

Ilk gazetalarning mazmun-mohiyati qanday bo‘lgan, degan savol tug‘ilishi tayin. Tarix ularning asosan savdo-sotiq sohasidagi yangiliklarga bag‘ishlanganligiga guvohlik beradi. Lekin sekin-asta gazeta va jurnal sahifalarida mafkuraviy va tahliliy materiallar ham o‘z o‘rnini egallay boshlagan. O‘scha davrda munozara uchun har xil mazmundagi savollar paydo bo‘lar edi. Misol uchun matbuot erkinligi, shaxs va davlat o‘rtasidagi munosabat, hukumat tepasida turuvchilarning imtiyoz va moddiy manfaatniadolatli taqsimlashi va hokazo. Shuningdek, jamoatchilikka faol ta’sir qilish jurnalislarga xat, murojaat xati, tanqid, tahliliy xat



kabi turli xil janrlardan keng foydalanish huquqini berdi. Jamoatchilikni maqsadlar atrofida birlashtirish qudratiga ega bo‘lgan matbuot vositalari ana shunday ko‘rinishda tashkil topgan.

Jurnalistika ayni matbuotdek inson mafkurasiga tez ta’sir qiluvchi boshqa kuch yo’qligi uchun ham tez rivoj topdi va yana dadil odimlayapti. Albatta, jurnalistika sohasiz jamiyatni tasavvur qilish qiyin. Negaki, Jurnalistika sohasini bejizga jamiyatning vijdoni deyishmaydi. Qarashlardan ma'lumki, jurnalistik atama nihoyatda ko‘p. Ushbu sohaga qiziqqan kishi borki, bu atamalar tarixi, kelib chiqishi uni ham qiziqtiradi. Umuman olganda, millati taqdiriga befarq bo’limgan har bir inson bunga qiziqishi tabiiy.

Jurnalistik atamalarning deyarli barchasini o’zlashma so’zlar tashkil etadi. Filologiya fanlari doktori, professor Abbosali Vafoiy ta’kidlaganlaridek, har bir til boshqa til ta’siriga uchrashi va so’zlar o’zlashtirishi tabiiy jarayondir. Til o’zining asl xususiyatini saqlagan holda, boshqa tillardan yangi leksik elementlarni o’zlashtirgan taqdirdagina rivojlanadi. Ayni damda siz bilan jurnalistika sohasiga boshqa davlatlardan kirib kelgan va eng ko‘p ishlatiladigan atamalar mazmuni bilan tanishamiz. Avvalo “Jurnalistika” so’ziga e’tibor qarataylik. Ushbu so’z fransuzcha “Journal” “Kundalik” –har kungi so’nggi axborotlarni beruvchi tarmoq ma’nosini anglatadi. Jurnalistika so’zi “ommaviy axborot vositalari”, “mass-media”, “ommaviy kommunikatsiya” tushunchalari bilan ham ma’nodosh bo’lib keladi. Jurnalistika ijtimoiy faoliyat turi. Uning tarkibiga gazeta, jurnal, kitob tahririylari, nashriyotlari, tele va radio, agentliklar, matbuot markazlari, internet va hokazolar kiradi. Bu faoliyat egalari dolzarb axborotlarni to’plash, tahlil qilish va OAV vositalarida e’lon qilish bilan shug’ullanadi. “Televide niye” so’zi ruscha “tele” va “videniye” –“Ko’rish”, “Ko’rsatmoq” degan ma’noni anglatadi. U harakatlanayotgan tovush va tizimni masofadan uzatish tizimi. Televide niye fan, texnika va madaniyatning ko’rinadigan axborotlarni radioelektron vositalar yordamida muayyan masofaga uzatish bilan bog’liq sohasi; axborotni tarqatish



vositalaridan biri “Radio” lotincha “radiare”- “nur chiqarmoq” demakdir. 1-axborotlari radioto’lqinlar (elektromagnit to’lqinlar) yordamida uzoq masofadan simsiz uzatishva qabul qilish usuli. 1895-yilda A.S.Popov ixtiro qilgan.

“Reklama” fransuzcha so’z bo’lib, o’zbekcha tabdili “qattiq qichqiraman” degan ma’noni bildiradi. Britaniyada faoliyat olib boruvchi reklama sohasidagi mutaxassis amaliyotchilarining ta’rifi quyidagicha: Reklama mo’ljallangan maqsadli auditoriya uchun tovar va xizmat haqida aniq ifodalangan, imkon qadar kam narxda tayyorlangan va joylashtirilgan xabardir.

“Korrespodensiya” lotincha so’zdan olingan bo’lib, “javob beraman”, “bildiraman” demakdir. Gazeta va publisistikaning asosiy janrlaridan biri hisoblanadi. Unda ma’lum davr va o’rindagi aniq ijtimoiy janr qamrab olinadi. Undagi axborot tahliliy tarzda bo’ladi, unda muallif shaxsan o’zi ko’rgan voqealarni aks ettiradi. Xabarlarni dalillar asosida tahlil etadi, umumlashtiradi, xulosa chiqaradi. “Gazeta” italyan tilidan o’zlashtirilgan bo’lib, “gazzetta-chaqa pul” demakdir. Gazeta kundalik voqealar to’g’risida materiallar e’lon qilinadigan va hayotning turli sohalariga oid voqea-hodisalarini yoritadigan siyosiy-ijtimoiy vaqtli janr. Uning vazifasi jamiyatning axborotga bo’lgan ehtiyojini, ma’naviy intellektual talablarini qondirishdan iborat. “Publisistika” lotincha “Publicus-ijtimoiy” ma’nosida ishlatiladi. Davrning ijtimoiy va siyosiy dolzarb masalalariga bag’ishlangan adabiy ijod turi. Uning vazifasi ijtimoiy fikr uyg’otish va uni shakllantirish, ma’lum maqsadga yo’naltirish, hujjatli ma’lumotlar asosida voqelik manzarasini yaratishdan iborat. Hozirgi zamon ijtimoiy hayoti, unga aloqador o’tmish va kelajak faktlari publisistikaning predmetidir.

“Imidj”- inglizchadan o’zlashgan, “siymo”, “timsol”, “qiyofa” degan ma’nolarni anglatadi. Siz haqingizda o’zga kishilarda paydo bo’ladigan taasurot.

“Kommunikatsiya”-lotincha so’zdan olingan bo’lib, “muloqot”, “xabar”, ”aloqa” ma’nolarini anglatadi.



Targ’ibot XIX asr oxiri XX asr boshlarida kasb sifatida shakllangan. “Targ’ibot” arabcha “targ’ib” so’zining ko’pligi. Targ’ibot –bu biror bir nuqtai nazar, manfaat yoki e’tiqodni qo’llab-quvvatlash maqsadida foydalaniladigan noxolis ma’lumotdir. Qadimgi yunonlar undan samarali foydalanganlar. Notiqning maydonda davlat siyosatini e’lon qilishi bunga misol bo’la oladi.

“Maqola” arabcha so’z. Ma’nosи “nutq”-kichik asar. Ma’lum voqeа hodisani fikr asosida tahlil qilish orqali yoritiladigan jurnalistik asar. “Internet” lotincha tarmoqlar aro demakdir. Publisistik ijtimoiy hayot hodisalarini chuqr tahlil qiluvchi janr. U davlat siyosati, iqtisodiyot, texnika,fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar, tajribalarni ommalashtiradi. Maqolada nuqsonlar tanqid ostiga olinadi.

“Obyektivlik” inglizchadan o’zlashgan bo’lib, xolislik degan ma’noni anglatadi. Jurnalistika prinsiplaridan biri hisoblanadi. Obyektivlik jurnalistika kasbida eng muhim omil bo’lib, u jurnalistning professionallik darajasini ko’rsatadi. Obyektivlik deganda bo’layotgan voqeа –hodisalarga uzatilayotgan yangilik, reportajga holisona shaxs sifatida qarash va uni tahlil qilish tushuniladi.

“Taqriz”- lotincha so’z bo’lib, “ijobiy baho” demakdir. Adabiy tanqid janr. Badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar. Taqrizda asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko’tarilgan muammolar, asrning g’oyaviy va badiiy xususiyatlari, muallif ijodida, adabiyotda tutgan o’rni haqida ma’lumot beradi.

Shubhasiz, bugungi kunimizni televide niye, internetsiz tasavvur qila olmaymiz. Televide niye va internet esa Jurnalistika sohasining asosini tashkil etadi. Demak, jurnalistika sohasi har bir insonning hayotida muhim ahamiyatga ega. Bu so’zlarning asl ma’nosini anglash jurnalistika sohasiga kirish uchun birinchi eng muhim qadamdir. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan mediamakonda Jurnalistika sohasi va jurnalistning vazifalari tobora ortib bormoqda. Internet oqimi kuchayib borar ekan, bu sohaning yelkasida katta mas’uliyat turibdi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jurnalistika asoslari 2007-yil,16-bet .
2. Jurnalistika asoslari 2007-yil, 6-bet.
3. Jurnalistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti .2019-yil.9-10-betlar.
4. Jahon jurnalistikasi tarixi 2006-yil. 317-bet.
5. Jurnalistika asoslari.2007-yil. 58-bet.
6. Jahon jurnalistikasi tarixi.2006-yil.167-bet.
7. Jurnalistika asoslari.2007-yil.53-bet.
8. Zamonaviy media muhitda pr-xizmatlar .2019-yil.496-bet.
9. Jahon jurnalistikasi tarixi.2006-yil.85-bet.
10. Zamonaviy media muhitda pr-xizmatlar2019-yil.27-bet.
11. Tahliliy jurnalistika.2019-yil.43-bet.
12. Jurnalistika asoslari.2007-yil.26-bet.
13. Jurnalistika nazariyasi ,tarixi va taraqqiyoti.2019-yil.70-bet.
14. Tahliliy jurnalistika .2019-yil.130-